



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	



RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI

Kalandarova Elnura Muzaffar qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti tayanch doktranti
E-mail: kalandarovaelnura@icloud.com
ORCID: 0009-0006-0404-3966

Annotatsiya: Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bozor mexanizmlarining ahamiyati hamda ularning iqtisodiy-ekologik samaradorlikni ta'minlashdagi o'rni tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida ekologik soliqlar, karbon to'lovlari, subsidiyalar, emissiya kvotalari, yashil obligatsiyalar va energiya tariflarini liberallashtirish kabi bozor instrumentlarining nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qo'llab-quvvatlash choralari va yashil moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanish tendensiyalari baholangan. Tahlil natijalari bozor mexanizmlari resurslardan samarali foydalanish, ekologik zararlarni kamaytirish, investitsiyalarni jalb etish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot yakunida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, bozor mexanizmlari, barqaror rivojlanish, ekologik soliqlar, karbon to'lovlari, yashil obligatsiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samaradorligi, yashil investitsiyalar.

Аннотация: Исследовано значение рыночных механизмов в развитии зелёной экономики, а также их роль в обеспечении экономико-экологической эффективности. В рамках исследования проанализированы теоретические основы и практическое значение таких рыночных инструментов, как экологические налоги, углеродные платежи, субсидии, квоты на выбросы, зелёные облигации и либерализация тарифов на энергию. Кроме того, дана оценка реформам, реализуемым в Узбекистане в сфере развития зелёной экономики, мерам поддержки возобновляемых источников энергии и тенденциям развития механизмов зелёного финансирования. Результаты анализа показали, что рыночные механизмы являются важным фактором эффективного использования ресурсов, снижения экологического ущерба, привлечения инвестиций и обеспечения устойчивого экономического роста. В завершение разработаны предложения и рекомендации, направленные на повышение эффективности развития зелёной экономики в Узбекистане.

Ключевые слова: зелёная экономика, рыночные механизмы, устойчивое развитие, экологические налоги, углеродные платежи, зелёные облигации, возобновляемые источники энергии, энергоэффективность, зелёные инвестиции.

Abstract: The significance of market mechanisms in the development of the green economy and their role in ensuring economic and environmental efficiency are examined. The study analyzes the theoretical foundations and practical significance of market-based instruments, including environmental taxes, carbon payments, subsidies, emission quotas, green bonds, and the liberalization of energy tariffs. In addition, reforms implemented in Uzbekistan to promote the green economy, support measures for renewable energy sources, and trends in the development of green financing mechanisms are evaluated. The findings indicate that market mechanisms play a crucial role in the efficient use of resources, reduction of environmental damage, attraction of investments, and promotion of sustainable economic growth. Based on the results obtained, proposals and recommendations aimed at improving the effectiveness of green economy development in Uzbekistan have been formulated.

Keywords: green economy, market mechanisms, sustainable development, environmental taxes, carbon payments, green bonds, renewable energy sources, energy efficiency, green investments.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida so'nggi yillarda kuzatilayotgan global ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar zaxiralarining kamayishi va atrof-muhit ifloslanishining ortishi iqtisodiy rivojlanishning yangi modellarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. An'anaviy iqtisodiy o'sish modeli ko'p hollarda tabiiy resurslardan



intensiv foydalanishga asoslangan bo'lib, bu ekologik muvozanatning saqlanishiga ta'sir etuvchi omillarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan muhim yo'nalish sifatida shakllanmoqda.

Yashil iqtisodiyot inson farovonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan bir vaqtda ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, chiqindilar hajmini qisqartirish va ekologik innovatsiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda davlat siyosati bilan bir qatorda bozor mexanizmlarining samarali faoliyati ham hal qiluvchi o'rin tutadi. Bozor mexanizmlari iqtisodiy subyektlarning qarorlariga ta'sir ko'rsatish orqali ekologik jihatdan mas'uliyatli xatti-harakatlarni rag'batlantiradi. Xususan, ekologik soliqlar, karbon to'lovlari, subsidiyalar, emissiya kvotalari va yashil moliyalashtirish instrumentlari orqali bozor ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatlari ekologik maqsadlar bilan uyg'unlashtiriladi. Natijada iqtisodiy o'sish va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish, yashil investitsiyalarni jalb qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda bozor mexanizmlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini baholash va ularni yanada takomillashtirish muhim ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan mazkur maqolaning maqsadi yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bozor mexanizmlarining nazariy asoslarini o'rganish, ularning iqtisodiy mazmuni va amal qilish xususiyatlarini tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoitida qo'llanilayotgan bozor instrumentlarining samaradorligini baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi va uni rivojlantirish mexanizmlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda iqtisodiy va ekologik fanlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xalqaro tashkilotlar, iqtisodchi olimlar va tadqiqotchilar tomonidan yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, uning iqtisodiy o'sishga ta'siri hamda bozor mexanizmlarining roli keng o'rganilgan.

Yashil iqtisodiyot tushunchasining nazariy asoslari dastlab Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda yashil iqtisodiyot inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshirish bilan bir vaqtda ekologik xavflar hamda resurslar tanqisligini kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy tizim sifatida ta'riflangan. UNEP ekspertlarining fikricha, iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'zaro bog'liq bo'lib, ularni ta'minlashda bozor instrumentlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyot nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlardan biri N. Stern hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida iqlim o'zgarishining iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilinib, ekologik muammolarni hal etish uchun iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy qilish zarurligi asoslab berilgan. Muallif karbon soliqlari va emissiyalar savdosi tizimini iqlim siyosatidagi eng samarali iqtisodiy vositalardan biri sifatida baholaydi.

Pirs (Pearce), Markandiya (Markandya) va Barbye (Barbier) kabi olimlar esa yashil iqtisodiyotning iqtisodiy mazmunini tahlil qilib, iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirish uchun tashqi ta'sirlarni bozor mexanizmlari orqali tartibga solish muhimligini ta'kidlaganlar. Ularning fikricha, ekologik soliqlar va subsidiyalar bozor muvozanatini ta'minlash hamda resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish masalalari bo'yicha tadqiqotlarda yashil obligatsiyalar, ekologik investitsiyalar va barqaror moliya instrumentlarining ahamiyati keng yoritilgan. Bu borada Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (World Bank), Xalqaro valuta jamg'armasi (IMF) hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil moliyalashtirish mexanizmlari ekologik loyihalarni amalga oshirishning muhim manbai sifatida baholangan.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional va iqtisodiy jihatlarini o'rganilgan. Xususan, rossiyalik olimlar S.N. Bobilyov, V.M. Zaxarov va boshqalar o'z tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida davlat siyosati va bozor mexanizmlarining o'zaro muvofiqligini ta'minlash muhimligini ta'kidlaganlar.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari bo'yicha qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Ularda mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va yashil investitsiyalarni jalb qilish masalalari tadqiq qilingan. Biroq mavjud tadqiqotlarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bozor mexanizmlarining iqtisodiy



samaradorligi va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanilish xususiyatlari yetarlicha kompleks o'rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bozor mexanizmlarining nazariy asoslari va amaliy ahamiyatini O'zbekiston misolida tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bozor mexanizmlarining ahamiyati va samaradorligini baholash maqsadida iqtisodiy tahlilning zamonaviy usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosini yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish hamda ekologik iqtisodiyot sohalaridagi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv usulidan foydalanilib, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bozor mexanizmlarining o'zaro bog'liqligi va iqtisodiy jarayonlarga ta'siri kompleks tarzda o'rganildi. Shuningdek, tahlil va sintez usullari yordamida ekologik soliqlar, subsidiyalar, karbon to'lovlari, yashil obligatsiyalar, emissiya kvotalari hamda energiya tariflarini liberallashtirish kabi iqtisodiy instrumentlarning mazmuni va amal qilish xususiyatlari tahlil qilindi.

Shu bilan birga, qiyosiy tahlil usulidan foydalanilgan holda O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan taqqoslandi. Bu orqali rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llanilayotgan bozor instrumentlarining samaradorligi baholandi hamda ularni milliy iqtisodiyot sharoitida qo'llash imkoniyatlari o'rganildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash maqsadida iqtisodiy va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash hamda ilmiy xulosalash usullari qo'llanildi. Ushbu metodologik yondashuv yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bozor mexanizmlarining ahamiyatini har tomonlama baholash va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bozor mexanizmlari iqtisodiy va ekologik samaradorlikni ta'minlashning muhim vositalaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Bozor instrumentlari orqali iqtisodiy subyektlarning resurslardan oqilona foydalanishga bo'lgan qiziqishi ortib, atrof-muhitga ta'sirni yanada kamaytirish imkoniyatlari kengaymoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishga qaratilgan bozor mexanizmlari so'nggi yillarda sezilarli natijalar bermoqda. Xususan, quyosh va shamol energetikasi sohasida xususiy investitsiyalarni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik loyihalarni amalga oshirish hamda soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash natijasida yashil energiya ishlab chiqarish hajmi izchil o'sib bormoqda. 2025-yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya manbalari hissasi mamlakatda ishlab chiqarilgan umumiy elektr energiyasining taxminan 23 foizini tashkil etgani mazkur mexanizmlarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Energetika sohasida amalga oshirilayotgan tarif islohotlari ham bozor mexanizmlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Energiya narxlarini iqtisodiy asoslangan holda shakllantirish resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishni rag'batlantirmoqda. Natijada aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarda energiya tejavchi texnologiyalarga talab ortib bormoqda. Bu esa iqtisodiyotning energiya sig'imini pasaytirish va uglerod chiqindilarini qisqartirishga xizmat qilmoqda. Ekologik soliqlar va chiqindilar uchun to'lovlar tizimi ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim iqtisodiy instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur mexanizmlar orqali atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi korxonalar ekologik talablarni yanada samarali bajarishga rag'batlantirilmoqda. Natijada sanoat korxonalarida resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish va chiqindilar hajmini kamaytirishga bo'lgan qiziqish kuchaymoqda.

Tahlillar yashil moliyalashtirish instrumentlarining ham ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatdi. Yashil obligatsiyalar, xalqaro moliya institutlari mablag'lari va imtiyozli kreditlar hisobidan qayta tiklanuvchi energiya, energiya samaradorligi hamda ekologik infratuzilma loyihalari moliyalashtirilmoqda. Bu esa mamlakatda ekologik investitsiyalar hajmini oshirish va xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bozor mexanizmlarining samaradorligi hududlar kesimida turlicha ekanligi aniqlandi. Toshkent shahri, Navoiy, Samarqand va Jizzax viloyatlarida qayta tiklanuvchi energiya loyihalari faol amalga oshirilayotgan bo'lsa, ayrim hududlarda infratuzilma hamda moliyaviy resurslarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud. Bu esa hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda bozor instrumentlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bozor mexanizmlari muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Qayta tiklanuvchi energiyani rag'batlantirish, energiya samaradorligini oshirish, ekologik mas'uliyatni kuchaytirish va yashil investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bozor mexanizmlari iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi. Ekologik soliqlar, subsidiyalar, tarif siyosati, yashil moliyalashtirish instrumentlari va investitsiya rag'batlari orqali iqtisodiy subyektlarning ekologik mas'uliyatini oshirish hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash mumkin.

Tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan bozor mexanizmlari yashil energiya ulushining ortishiga va energetika sohasida investitsiyalar hajmining ko'payishiga xizmat qilmoqda.

Energiya tariflarini bosqichma-bosqich liberallashtirish energiya resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantirib, iqtisodiyotning energiya sig'imini kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ekologik soliqlar va chiqindilar uchun to'lovlar tizimi korxonalarining ekologik mas'uliyatini kuchaytirish hamda atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yashil obligatsiyalar va xalqaro moliyaviy resurslar hisobiga amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari mamlakatda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning muhim manbasiga aylanmoqda.

Bozor mexanizmlarining samaradorligi hududlar kesimida turlicha bo'lib, ayrim hududlarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash choralarini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

– qayta tiklanuvchi energiya sohasida xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish va investitsiya muhitini takomillashtirish;

– ekologik soliqlar va karbon to'lovlarini bosqichma-bosqich takomillashtirish orqali tashqi ekologik ta'sirlarni iqtisodiy hisobga olish mexanizmlarini kuchaytirish;

– yashil obligatsiyalar bozorini rivojlantirish va ekologik loyihalar uchun imtiyozli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish;

– energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalarni joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

– hududlarning tabiiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning maqsadli dasturlarini ishlab chiqish;

– milliy iqtisodiyotda karbon bozori elementlarini joriy qilish imkoniyatlarini o'rganish va tegishli institutsional bazani shakllantirish.

Bozor mexanizmlarini samarali qo'llash O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga erishishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yashil iqtisodiyot: darslik / A.V. Vahobov, Sh.X. Xojibakiyev va boshqalar. – Toshkent: «Universitet», 2020.
2. Vahobov A.V., Xojibakiyev Sh.X. «Yashil iqtisodiyot» asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlari // «XXI asr: fan va ta'lim masalalari» ilmiy elektron jurnali. – 2017. – № 2.
3. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash – barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim sharti // «Iqtisodiyot va ta'lim» ilmiy jurnali. – 2017. – № 2.
4. Barqaror iqtisodiy o'sish va uni ta'minlash bosqichlarining tahlili // «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. – 2014. – № 6. – Noyabr–dekabr.
5. «Iqtisodiy o'sish»: darslik. – Termiz davlat universiteti, 2009.
6. «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. – 2017. – № 1. – Yanvar–fevral.
7. William Hynes, Shannon Wang. Green Growth and Developing Countries: A Summary for Policy Makers. – June, 2012.
8. Аткиссон А.Р. Как устойчивое развитие может изменить мир. – М., 2012. – 255 с.
9. Гаврилов В.Н. Общество и природная среда. – М., 2006. – 334 с.
10. Перелет Р.А. Переход к эре устойчивого развития // Россия в окружающем мире: 2003 (Аналитический ежегодник). – М.: Изд-во МНЭПУ, 2003. – С. 10–30.
11. http://www.ggdc.net/maddison/Historical_Statistics
12. <https://review.uz/ru/post/vozobnovlyaemaya-energiya-dlya-ustoychivogo-razvitiya>
13. yearbook.enerdata.net
14. www.mineconomy.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>